

II-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova  
suv xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha  
NAMUNAVIY SHARTNOMA

Denov shahri (tuman)

(shartnoma imzolangan joy)

Ushbu shartnoma: "Surxondarvo suv tashkiloti" MCHJ Denov tuman hujumli, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiluvchi, nizom asosida faoliyat yurituvchi

Hogayvaob A

shaxsida

bir tomondan, hamda keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Denov 4.4.5 Huzon.  
asosida ish olib boruvchi Way nob, 44.  
tomondan quyidagilar haqida tuzdilar: (E.L.O.) ikkinchi

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq II-guruh iste'molchisi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazib berish 3755 m<sup>3</sup>: narx bo'yicha 147 m<sup>3</sup>:ni  
1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun 2700 so'm (+QQS 15%), + 405.0 so'm + (maxsus ustama xaq 50 so'm) ni,  
1 m<sup>3</sup> oqova suv uchun 1050 so'm (+QQS 15%), + 157.5 so'm + (maxsus ustama xaq 50 so'm) ni tashkil qilmoqda. Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 444855 so'm (summa yozuv bilan) to'rt o'z yuz ming to'rt yuz yigirmit uch oltinchi ming to'rt yuz oltinchi yuz oltinchi so'm.  
Shundan o'shingan qiymat so'm 68027,56 so'm ni tashkil qiladi. Shu jumladan, budget mablag'laridan 444855 so'm, budgetdan tashqari mablag'laridan so'm to'lanishi ko'zda tutilgan

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvdan uchun hisob-kitoblar Iste'molchi bilan (budget tashkilotlaridan tashqari) avans to'lovlari tarixida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilish sharti bilan yoki Ta'minotchi tomondan hisob varaqasi (schof-fakturalar) taqdim etish orqali, shuningdek, budget tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining huddudi bo'linmalar orqali o'zaro hisob-kitob qilishga o'tkazilgan mablag'lar bilan Ta'minotchi taqdim etadigan schof-fakturalari bo'yicha amalga oshiriladi

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatli (O'ZDSI 950 2011 davlat standartiga muvofiq) ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

1.3. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, har oyning 10 shanbasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tarqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvi chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalarini"ga (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi) rioya etishi, shuningdek, Iste'molchi, Ta'minotchi tomondan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilishi hamda mahalliy davlat hokimiyat organlari tomondan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqini 1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun 3155 so'm, 1 m<sup>3</sup> oqova suv xizmati uchun 1257.5 so'm to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladilar

II. Umumiy qoidalar

2.1. Iste'molchi Ta'minotchi ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega

2.2. Iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov nasalalanda paydo bo'ladigan nizolar Ta'minotchi tomondan ko'rib chiqilmaydi

2.3. Agar Iste'molchi va unga ulangan subiste'molchi turli guruh iste'molchilariga mansub bo'lsa, Ta'minotchi bilan shartnomani Iste'molchi ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi

Iste'molchi (subiste'molchiga) berilgan ichimlik suv hajmi uchun to'lovlar Ta'minotchiga, ularning suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlar bo'yicha va ular mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida to'lanadi

Ta'minotchi bilan shartnoma tuzgan Iste'molchi o'zi mansub guruhdagi subiste'molchilarga ulangan bo'lsa, subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv va chiqarilgan oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar asosiy iste'molchi bilan, u mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi

O'z navbatida, Iste'molchi, o'zi ishlagan suv uchun Ta'minotchiga amaldagi tariflar asosida to'lovlarni amalga oshirishda subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv hajmlarni ham nobatga olgan holda hisob-kitob qiladi

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda:

- a) irrigatsiya suvi bo'lmaganda,
- b) ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyat organlari tomondan tasdiqlangan javdai bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan Iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlar uchun foydalanadi

2.6. Suvni hisobga olish asbobi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomondan tekshirilgan va tamolangan bo'lishi va suv o'chash tarmog'i suv ta'minotchi tashkiloti tomondan plomblanishi shart. Shuningdek, ichimlik va oqova suvni hisobga olish asbobi yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va qoidalariga asosan amalga oshiriladi

2.7. Iste'molchiga o'rnatilish lozim bo'lgan suv o'lchash asbobining shartli o'tkazilishining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moli tekshiriladi hamda Iste'molchi bilan kelishiladi

Iste'molchida suvni hisobga olish asbobining ishlashi nazorat qilinganda, o'lchovlarning texnik tafovifnomasida yo'l qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdordagi suv iste'molining taqdirida Ta'minotchi suv o'chash uzeli analka sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametrdagi asbonga (benigan kundan keyingi 30 kalendar kun ichida) qayta fihozlashga ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatma bajarilmagan taqdirida suvdan foydalanish va oqova suvlarni chiqarish uchun to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash asboblarni ishg'a tushirish, almashirish, yangi subiste'molchilarning ulanishi Iste'molchi tomondan faqat Ta'minotchi tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular Iste'molchining so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidan olingan texnik shartlar Iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yor hujjatlari asosida ishlab chiqiladi

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirishi Ta'minotchi tomondan, Iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarigan nasandagi qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan Iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va Iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kintilgan sanadan o'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart

2.11. Quyidagilar Ta'minotchi bilan Iste'molchi o'rtasidagi, kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmog'ini, inshootlari, qurilmalari)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi

a) suv iste'moli uchun - kommunal tarmoqqa ulanishini uzib tekshirish kirishi qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, Iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi,

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun - Iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudugi. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudugi (kamera) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu qudug Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizigi esa Iste'molchining mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz ravishda yoki Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xaq tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'ZDSI 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdordagi ichimlik suv berilishini talab qiladi

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblari o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish.  
v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablari bajarilmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdordagi jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish.

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsani yoki o'z vakili orqali bepul olish.

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlari tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayorganligi yoki ulaming past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini talab qilish va ma'lumotlarni olish.

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmatlari organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatlari ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatless ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirishni talab qilish.

### 3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlash. ulaming buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik. quduqlarning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchilardan tomonidan o'rnatilgan plombalarning saqlanishini nazorat qilish, yer usti suv quymalarning quduqlar yonidan oqib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlanga kirib boshish yo'laklarni turband qilmaslik, yong'in gidrantlari ko'rsatkichlarining ishg'a yaroqliligini kuzatib boshish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) turli predmet va materiallarning uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki tasarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalari ustida hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashqi joylashuvda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida) yerlarda biror-bir inshootlarni qurishga yo'l qo'ymaslik. Amaldagi tarmoqlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlarda avyana sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganing zimmasiga yuklanadi;

g) tranzit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardagi o'zlarini aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga zudlik bilan xabar bersh;

d) suvni hisobga olish asboblari va yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat bo'yicha ham) Ta'minotchiga uning elektron pochta orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda xabar bersh;

e) shartnoma dorasidagi majburiyatlarni bajarish, jony oyingning 23-25-sanasida suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, jony oyingning so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlari Ta'minotchining elektron manzili yoki telefon raqami orqali vohud Ta'minotchilardan taqdim etilgan holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish.

yo) suv sarfi va oqova suvlari oqizilishining shartnomada belgilangan hajmlardan oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) subsist'molchilardagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdagi suvni yo'qotishlar oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashi va u xizmat ko'rsatishi lozimi bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

1) ishlab chiqarish oqova suvlardagi ifloslanish konsentratsiyasini normativdagi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) me'yorlarga yetkazgan holda oldindan tozalashini ta'minlash;

y) kanalizatsiya tarmoqlariga oqiziladigan oqova suvlari sifati bo'yicha monitoring o'rnatish.

k) o'z hududida joylashgan suv o'lchash uzeli, kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida olib boriladigan barcha turdagi ishlarni bajarishga begona shaxslarni kiritmaslik;

l) Ta'minotchilarning vakilligini ishtirok etish quduqlari (kameralar) qopqog'ini ochishga ruxsat bermaslik;

m) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda Iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yong'in va erigan qor suvlarining oqizilishiga yo'l qo'ymaslik (Iste'molchiga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlarda oqizilishi bundan mustasno) Mazkur huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchilarni vakili, belgilangan tartibda, Iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralarini belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tuzadi;

n) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasizs biror-bir ish olib borayotgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar bersh

### 3.3. Ta'minotchining huquqlari

a) Ta'minotchilarni, Iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishni mumkin

a) Iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va Ta'minotchilarni vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha Ta'minotchilarni talablari Iste'molchilardan tomonidan bajarilmaganda,

b) Ta'minotchilarni mansabdori shaxsi Iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv beshini muvofiqdoshlashish va Ta'minotchilarni naryadlari bo'yicha boshqara ishlarni bajarish uchun kelganda Iste'molchilardan tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda,

a) Ta'minotchilardan Iste'molchilardan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

a) Iste'molchilarni tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulanganligi aniqlanganda;

a) Iste'molchilardan tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda,

a) Iste'molchining tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

a) Iste'molchilardan tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u qabul qilinmagan oqova suvlari miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga noya qilmaganda.

b) Ta'minotchilarni quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmagan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli

b) Ta'minotchining elektr ta'minoti to'xtatilganda,

b) tabiiy ofatlar ro'y berganda;

b) avariya holatlarida,

b) yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. Ta'minotchining majburiyatlari

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib bosh;

v) suv ta'minoti uzluksizligini ta'minlash (Iste'molchilarni bilan kelishilgan grafik asosida suv beshish holatlaridan tashqari),

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiiy muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yorli hujjatlar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalarga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlarni tashkili qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringni olib boshish;

ye) Iste'molchining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlanga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ularidan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib boshish, ulardan samarali foydalanishni tashkili qilishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqplona foydalanilmayotganlik holatlarini aniqlash, suv beshish va undan foydalanishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblarni o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib turish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasizs biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

- y) Iste'molchining shartnomasi o'zgartirilgan yoki o'zgartirilmagan masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;
- k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablari, xizmat ko'rsatishdagi to'xtalish muddatlari va cheklanishlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablari haqida Iste'molchiga axborot berish;
- l) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlari ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtalish va uzilishlar haqida Iste'molchini uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan chekkamay ogohlantirish;
- m) ichimlik suvi iste'mol qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar bilan Iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta) orqali xabardor qilish;
- n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvi chiqarish xizmatlari tanlanadigan o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchining ijtimoiy tarmoqlari) sahifalari, rasmiy sayti) yordamida Iste'molchini xabardor qilish;
- o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvi chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish.

#### IV. Taraflarning javobgarligi

- 4.1. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi
  - a) Iste'molchini me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar hamda mazkur shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;
  - b) Iste'molchiga me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar hamda qonunchilik asoslari va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq (O'ZDST 950 2011 davlat standartiga muvofiq) sifati ichimlik suv yetkazib berish;
  - v) Iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ulanish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlarni taqdim etish;
  - g) suvi hisobga olish individual asboblari va o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda Iste'molchidagi suvi hisobga olish asboblarning yechib olinishi, o'tatilishi, ko'rsatkichlarni nazorat qilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;
  - d) Iste'molchining mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berish;
  - e) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarilganlik.
- 4.1.1. Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra uzilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:
  - a) Qoidalarining 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtatilgan.
  - b) Iste'molchining aybiga ko'ra.
- 4.1.2. Ta'minotchi, agar suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yengib bo'lmaydigan kuch yoki suv ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlari Iste'molchi tomonidan buzilganligi tufayli sodir bo'lganligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda isbotlansa, u sifat buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
- 4.1.3. Tozalash inshootlari, nasos stansiyalari quvvatining yoki kommunal suv quvurlarining suv o'tkazish quvvatining yetarli emasligi tufayli suv ta'minotida muntazam ravishda uzilishlar bo'lgan taqdirda Ta'minotchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda, Iste'molchini unga suv berilishi rejalari haqida xabardor qilib, alohida tumanlarga suv berilishi yuzasidan javob beradi. Shu bilan birga, Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan normal ta'minlashga to'g'ri kelmaydigan sabablarni bartaraf etishga doir barcha zarur tadbirlarni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, shuningdek suvi hisobga olish asboblari mavjud bo'lmaganda - suvi berish so'zlashuv mutanosib ravishda qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan javob beradi.
- 4.2. Iste'molchi quyidagilar yuzasidan javob beradi
  - a) kanalizatsiya tizimida avaryasi bo'lgan taqdirda yetarli xonalarni suv boshidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning butligi, saqlanganligi, ishga yaroqchiligi va normal texnik holatdagi bo'lishi;
  - b) O'ziga qarashli sanitariya asboblari, kanalizatsiya tarmoqlari, inshoot va qurilmalardagi tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nasos texnik holati tufayli Iste'molchining kanalizatsiya tarmoqlarida yoki Ta'minotchida, ichimlik suv va kanalizatsiyaning tashqi tarmoqlarida avaryasi (tutilib qolish, suv bosishi) sodir bo'lishi sababli yetarli xonalarni suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun;
  - v) Ta'minotchi bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvi hisobga olish asbobi, aylana linva zulfini, yong'in zulfini, gidrantlar va uning hududida yoki tashrifida bo'lgan holda Ta'minotchi tomonidan plomblangan boshqa ichimlik suv qurilmalarida plomblanmay yong'in va saqlanishi uchun;
  - g) Ta'minotchiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarning shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda.
- 4.3. Suvni hisobga olish asbobi va stol zulfidagi plomblarning saqlanmaganligi va but emasligi aniqlangan taqdirda, so'nggi dalolatnoma tuzilgan sanadan e'tiboran, ammo eng ko'pi bilan uch oydan oshiq bo'lmagan davr uchun, to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 4.4. Plomblangan yong'in zulfini va gidrantlaridagi plomblarni uzishga quyidagi holda yo'l qo'yiladi:
  - a) Ta'minotchi bilan kelishilganidan so'ng suv ta'minotining yong'in qarshi tizimi faoliyati tekshirilganda va yong'in nasoslari sinovdan o'tkazilganda;
  - b) Ta'minotchini xabardor qilmagan holda yong'in o'chirilganda va yong'in xavfsizligi organlari tomonidan yong'in qarshi suv ta'minoti tizimining sinovlari o'tkazilganda.
- 4.5. Ichimlik suv ta'minotining yong'in qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda iste'molchi 24 soat mobaynida Ta'minotchiga plomba uzilgan to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfini/plomba olinish uchun Ta'minotchi vakilini chaqirishi zarur.
- 4.6. Suv quvuriga o'zboshimchalik bilan ulangan, sovuq suvi hisobga olish asboblarning buzilishiga ataylab yo'l qo'ygan, shuningdek ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblarga tashqidan aralashgan iste'molchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

#### V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

- 5.1. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik suv va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, xar oyingin 10 sanasiga qadar 70 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirishi lozim.
- 5.2. Iste'molchi shartnomada belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda to'lovlarining kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.
- 5.3. Ta'minotchi shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holdalarda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar (bajarilmagan ishlar) bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 5.4. Iste'molchi ichimlik suv va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan shartlar asosida va tartibda o'z vaqtida to'lamasa, Ta'minotchi Iste'molchini yozma ravishda xabardor qilgan paydan boshlab 5 ish kun o'tilgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iste'molchini ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.
- Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan foydalanilgan uzib qo'yilgan (o'zboshimchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) Iste'molchini qayta ulashda Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorigin 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.
- 5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan holda, iste'mol qilingan suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobidan 2,0 ko'effitsiyentiga qo'shiladi.
- 5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimiga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashish manbalarga ega bo'lgan holdalarda) Ta'minotchi tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obyektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun nuxsionamni qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.
- 5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish hajmi o'tmagan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'tmagan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asboblarning ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

#### VI. Alohida shartlar

- 6.1. Ob'ekt egasi o'zgariganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni to'lab, bu haqda Ta'minotchi bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvi hisobga olish asbobi, plomblarning butligi va qoplangan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Quyidagi holdalarda sarflangan ichimlik suv miqdori Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq hisoblanadi

a) agar Iste'molchi suvi hisobga olish asbobi bilan ta'minlanmagan bo'lsa,

v) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarga o'z boshimchalik bilan ulanib olinganda (o'z boshimchalik bilan ulanish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish dalolatnomasi tuzilgan kundan, shuningdek agar o'z boshimchalik bilan ulanish Ta'minotchiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'z boshimchalik bilan ulanish kundan boshlab u aniqlangunga qadar, biroq uch oylik muddatdan ko'p bo'lmagan holda);

g) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchi aybi bilan ishdan chiqqan (suvni hisobga olish asbobi sifatiz suv bilan birga oqib keluvchi qum, tosh va loyqa yig'ilishi natijasida ishdan chiqqanligi haqida tegishli xulosa mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno), singan, buzilgan va bu haqda Ta'minotchi xabardor qilinmagan taqdirda (bunda sarflangan suv miqdori, so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan to yangi suvni hisobga olish asbobining o'rnatilish sanasigacha, ammo uch oydan oshib bo'lmagan muddat uchun hisoblanadi);

d) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchiga Ta'minotchi tomonidan oqohlantirish xati yuborgandan so'ng belgilangan muddatda davny qiyoslovdan o'tkazilmaganida.

6.3. Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybsiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rta sarf bo'yicha aniqlanadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obyektni loyxlashtrish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan yoki muddati o'tgan hollar Ta'minotchi tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. Iste'molchi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda Ta'minotchi tomonidan xokim qarori, kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar Ta'minotchi tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu to'lovlar Iste'molchi tomonidan 3 ish kuni ichida akseptiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda Ta'minotchi kechiktirilgan to'lovning har bir kun uchun 0,4 foiz penya hisoblaydi, ammo uning umumiy qiyamati asosiy to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

6.7. Shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi kommunal kanalizatsiya tizimiga jala suvlari nuxsat etilmagan holda oqizilgan taqdirda iste'molchiga nisbatan ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizganligi uchun amaldagi tariflarga nisbatan qo'shimcha uch barobarlik ko'rsatkichi ta'biq etiladi. Hisob-kitob tashkilotning naydoni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibiga muvofiq kadastr va meteorologik ma'lumotlarga binoan amalga oshiriladi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdordan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Hisob-kitobning noto'g'in qilinganligi (tariflarning noto'g'in hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida Iste'molchi yoziladigan e'tiroznomani to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda Ta'minotchi ga joylashgan manzilga borgan holda yoki Ta'minotching telefon raqami, elektron pochta yohud pochta xizmati orqali taqdim etishi kerak. E'tiroznomasi Iste'molchim to'lov talabnomasi va xujjatda ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

E'tiroznomasi Ta'minotchi tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Ular asosi deb topilsa, to'langan ortiqcha summa keyingi to'lov hujjati hisobiga o'tkaziladi. Iste'molchi e'tiroznomasi ko'rib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotdan, u taqdim etgan telefon raqami (shu jumladan mazkur telefon raqamning teleqram ijtimoiy tarmoq idagi profili) yoki pochta xizmati orqali, e'tiroz ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muddat tugagandan keyin 3 kun muddatda xabardor qilinishi lozim.

Agar ko'rsatilgan muddat ichida iste'molchi xabardor qilinmasa, masala iste'molchi foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

### VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Tarafalar o'rtasida ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va shartnomaga oid boshqa holatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tarafdamlar o'zaro kelishuvi orqali hal qilinadi. Tarafalar tomonidan nizolar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Iste'molchi joylashgan manzildagi tegishli sudlar orqali hal qilinadi.

### VIII. Fors - major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy xodisalar va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlar amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomoni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profil) va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnomani bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartnoma imzolangan va g'aznachilik bo'limlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va tarafalar tomonidan imzolanshi shart.

### X. Tarafdamlarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

#### «TA'MINOTCHI»

“Surxondaryo suv ta'minoti” MCHJ Denov fuman bo'limi

Manzil Denov shah. Z.M. Bobur MFY N.Mirzaev 6 uy

Bank Ipotek bank Termez fil. INN 206310371

X/R 22638000104485728400

MFO 80356 OKONX 97600

Tel 41-31-702

“Surxondaryo suv ta'minoti” MCHJ

Denov fuman bo'limi boshlig'i A. Abdulloyev

M.O. (F.I.O. imzo)

2021.

Yuridik yuzasi:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik kodeksi va Xozirlik yuzasidagi bank rekvizitlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan.

Yuriskonsult:

М.И.М. Юрисконсульт К. Э. Ибрагимов 19.01.2022 y



## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY

### XULOSA EC30213750

- 1.Loyihaning turi: Xo‘jalik shartnomasi.
- 2.Loyihaning nomi.

Loyiha ta‘minotchi “Surxondaryo suv ta‘minot” MChJ Denov tuman bulimi bilan iste‘molchi Denov tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasida quyidagilar to‘g‘risida 444 855 (To‘rt yuz qirq to‘rt ming sakkiz yuz ellik besh) sumlik ichimlik suvini ta‘minoti bo‘yicha shartnoma tuzish to‘g‘risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:  
Denov tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 2022 yil 19 yanvarda kiritilgan.

### X U L O S A

Loyiha O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi 670-1-sonli Qonuniga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Denov tuman Yuridik xizmat ko‘rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti,  
3-darajali yuristi:**



**B.Ismoilov**

2022 yil 19 yanvar



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"SURXONDARYO SUV TA'MINOTI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning —tadbirkorlik subyekting tashkiliy hucudiy shaxslikka rasmiy holidagi to'liq nomi)

**"SURXONDARYO SUV TA'MINOTI" MCHJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil otish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

08.01.2016

0041

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

206310371

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Joylashgan joyi:

**Suxandaryo viloyati, Termiz shahri, T.Mirzayov ko'chasi 124"A"-uy.**

Guvohnoma:

**Suxandaryo viloyati, Termiz shahri, DAVLAT XIZMATLARI** tomondan  
**MARKAZI** berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

